

Turkiyaga borgan odam bir oyda turk tilini o'rganib oladi. Chunki turklar boshqa tilda umuman gaplashmaydi.

# Davlat buyurtma berdi, nega natija sezilmayapti?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni davlat tilini rivojlantirish borasidagi muammolarga yechim topish DAVLAT BUYURTMASI, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar Komissiyasining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori yangi so'z va atamalarni rasmiy muomalaga olib kirish vazifasi HUKUMAT BUYURTMASI sifatida qo'yildi.

Farmon e'lon qilinganiga mana 3 oy bo'ldi. Departament tashkil etildi, tegishli qarorlar chiqdi yoki tayyorlanmoqda, OAVlarda har kuni bo'lmasa ham, haftalab kunda katta-katta maqolalar e'lon qilinayotir, tok-shoular bo'lib o'tmoqda, "Munosabat" ko'rsatuvining bir necha soni namoyish etildi, muammo "Xalqaro press-klub"da muhokama qilindi, universitetlarda tegishli kafedralar tashkil etilmoqda, malaka oshirish markazlari ish boshladi va h.k. Ammo davlat tilining nufuzi va mavqeyini tubdan oshirishga kirishilganiga uch oy bo'lsa hamki, hanuz omma ko'ziga yaqqol tashlanadigan

## AMALIY NATIJA SEZILMAYAPTI.

Bu jamoatchilikning ayrim e'tirozlariga sabab bo'layotir. Albatta, Farmonda ko'rsatilgan ayrim vazifalarni amalga oshirish uchun 5–10 yillar talab etiladi. Pala-partish va shoshmashosharlik bilan ish ko'rish millatimizga yot xususiyat. Ammo ba'zi ishlar uchun bir oy ham ko'plik qiladi. Masalan, boshqa tilda yozilgan mavjud peshlavhalar yoniga o'zbek tilidagi variantini yozib qo'yishni rasmiylashtirish va uni amalga oshirish ko'p vaqt talab qilmaydi. U juda ham nozik, uzoq o'ylab ish ko'rishni taqozo etadigan, millatlar orasiga nizo solib qo'yishi mumkin bo'lgan siyosiy oqibatni keltirib chiqarmaydi. Chiqish joyiga ilingan "EXIT" degan yozuv yoniga "CHIQISH" so'zini tirkab qo'yish uzoq mulohaza yuritishni taqozo etmaydi. Bu hech qanday xavfli oqibatni keltirib chiqarmaydi. Shunchaki, boshqa tildagi yozuv yoniga o'zbekchasi ham qo'yiladi, xolos. Yoki "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning

yangi loyihasini tayyorlash ham anchayin cho'zilib ketgandek. Reklama to'g'risidagi Qonun ham shunday. Bu ehtiyotkorlikmi yoki loqaydlik? Soliq va to'lov kabilar haqidagi hujjatlar o'z vaqtida — belgilangan sanada kuchga kiradi-ku! Bu holat ayrim "millatparvarlar"larning jazavali chiqishlariga sabab bo'layotir.

Farmon amaliy natija bermayotganligining sabablaridan biri barcha hujjat va tuzilmalar tayyor bo'lgani holda ayrim vazifalarni amalga oshirishga doir

## ANIQ MEXANIZMLARNING YO'QLIGI.

O'zim guvohi bo'lgan majlis, ko'rsatuv va tadbirlarda faqat nima qilish kerakligi muhokama qilinmoqda. Ammo ularning birortasida muammolarni qanday yechish kerakligi kun tartibiga qo'yilmayapti, "Til-sevar"larimiz ham jiddiy asoslangan mexanizmlarni taqdim etishmayotir. Masalan, Prezident Farmoni va Vazirlar Mahkamasining Qarorida qo'yilgan vazifalar sirasida ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish alohida o'rin tutadi. Daxldor ilmiy-pedagogik muassasalarning mazkur muammo ilmiy yechimiga doir taklif va rejalarni ishlab chiqishi kechikmoqda. Holbuki, Farmon va Qarorda belgilangan vazifalarni hal etishda najot nuqtalaridan biri va asosiysi — ilm.

Adabiy tilni muttasil boyitib borish, bunda undagi bo'shliq(lakuna)larni aniqlab, ularni shevalar asosida to'ldirish, kirib kelayotgan ajnabiy so'zlar o'rniga milliy variantlarni taklif etish chuqur ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi. Joriy yilda oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot ins-

titutlarida magistratura va doktoranturaga qabul amalga oshirildi. Ularga Davlat tilini rivojlantirish departamentidan belgilangan vazifalarning asosiylarini amalga oshirishda zarur bo'lgan lug'atshunoslik, atamashunoslik, shevashunoslik, kompyuter va korpus lingvistikasi bo'yicha maqsadli tadqiqot mavzulari tavsiya etilmadi.

Xo'sh, belgilangan ushbu vazifani

## QANDAY BAJARISH KERAK?

Ma'lumki, davlat tilini rivojlantirish tashkiliy, huquqiy, targ'ibiy, ta'limiy va tadqiqiy yo'nalishlarda olib boriladi. Biz chorak asrdan ziyodroq vaqt davomida faqat targ'ibiy yo'nalishda ish olib bordik, bu borada nimagaki erishgan bo'lsak, uning sharofati bilan bo'ldi. Nimalarda yutqazgan bo'lsak, unga boshqa yo'nalishlarda ish olib bormaganligimiz sabab bo'ldi. Davlat tilini ichki imkoniyatlar asosida boyitish, ilmiy asoslangan so'z va atamalarni rasmiy muomalaga olib kirish aniq ishlaydigan ilmiy mexanizmni talab qiladi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirmoq lozim:

**Birinchi**dan, ilm-fan sohalari terminosistemalar nuqtayi nazaridan tasniflanib, ularning har biridagi atamalarning holati va ularning yechimiga doir tadqiqot mavzulari banki shakllantirilmog'i kerak. "O'zbek terminologiyasining hozirgi holati, muammolari va istiqbollari", "O'zbek shevalari lug'atchiligining hozirgi holati: muammolar va yechimlar" kabi fan doktorligi, "O'zbek tilining lingvistik terminologiyasi: tizimi, tarkibi va takomillashtirish asoslari" kabi falsafa doktorligi tadqiqotlarini davlat buyurtmasi asosida tizimli va maqsadli amalga oshirmoq lozim. Bu mavzular misol uchun keltirildi, xolos. Atamashunoslik bo'yicha maqsadli va amaliy tavsiyali tadqiqotlarni axborot texnologiyalari, biologiya, geografiya, geodeziya, geologiya, geometriya, geofizika, gidrologiya, gidrotexnika, diplomatiya, zoologiya, iqtisodiyot, kimyo, kinematografiya, konchilik, kulinariya/oshpazlik, qishloq xo'jaligi, matematika, meteorologiya, metrologiya, mexanika, mineralogiya, mifologiya, moli-

ya, musiqa, optika, pedagogika, psixologiya, radiotexnika, san'at, siyosat, sport/fizikultura, tibbiyot, transport, to'qimachilik, falsafa, farmakologiya, fizika, fiziologiya, harbiy ish, huquq, elektrotexnika sohalari va h. bo'yicha alohida-alohida mavzular sifatida bajarish kerak bo'ladi. Bu tilshunolar va boshqa soha mutaxassislarining hamkorlikdagi ilmiy rahbarligida tayanch doktorant, doktorant va ilmiy izlanuvchilarning maqsadli tadqiqoti sifatida amalga oshirilishi kerak.

**Ikkinchi**dan, muammoning asosiy yechimi Atamalar komissiyasiga bevosita bo'ysundirilgan, turli soha mutaxassislaridan iborat "Milliy lug'atshunoslik, atamashunoslik va shevashunoslik ilmiy markazi" bo'lishini taqozo etadi.

Soha atamalari o'rganiladigan tadqiqot mavzularini yuqoridagidek shakllantirish, bu tadqiqotlarga davlat buyurtmasi tusini berish ularning natijalari asosida ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish imkonini beradi. Zero, muammolarni aniqlamasdan va ularning yechimiga doir aniq ilmiy tavsiyalarni olmasdan atamalarni rasmiy iste'molga kiritish kutilgan natijaga olib kelmaydi.

**Uchinchi**dan, Atamalar komissiyasi huzuridagi ilmiy markaz qoshida yana bir ilmiy tuzilma — atamashunoslik (lug'atshunoslik, shevashunoslik) bo'yicha dissertatsiyalarning bir martalik himoya kengashini tashkil etish zarur. Atamalar komissiyasi buyurtmasidagi dissertatsiyalar, lug'atlar, monografiyalar muhokamasini shu kengashda o'tkazish kerak. Kengashning bir martalik bo'lishiga sabab har yig'inda boshqa-boshqa soha mutaxassislari, tilshunolar birga ishtirok etish zarurati bilan bog'liq. Mavjud boshqa kengashlar faqat soha mutaxassislaridan iborat bo'lgani uchun ular qo'yilgan muammoni muhokama qilish imkoniyatiga ega emas. Masalan, til bo'yicha himoya kengashida matematik terminlarni muhokama qilishni faqat tilshunolarning zimmasida qoldirib, matematiklarsiz ish ko'rib bo'lmaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yangi atamalarni rasmiy muomalaga olib kirish algoritmi "markaz→ilmiy tadqiqot→himoya" ko'rinishida bo'lishi aniq natijalarni beradi.

**Baxtiyor MENGLIYEV,**  
ToshDO'TAU professori,  
filologiya fanlari doktori

# O'zbek tilini o'rganish shart!

Ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarga o'zbek tili fanidan dars beraman. Bunday sinflardagi o'quvchilarning ma'lum qismi rus, qozoq, koreys, qirg'iz millatiga mansub bo'lsa-da, aksariyati o'zbek bolalar. Darslarimning birida o'zbek millatiga mansub bir o'quvchim savol berib qoldi:

— Ustoz, o'zbek tilini o'rganish shartmi?

Men javob berdim:

— Ha, albatta, o'rganish shart. Chunki o'zbek tili davlat tilidir. U bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Milliyligimiz timsoli, boyligimiz. U bizga har kuni, har daqiqada kerak.

— Unchalik deb o'ylamayman, ustoz. Chunki biz uyda faqat ruscha gaplashamiz. Mening davolovchi "vrachim" ham o'zbek, "nu" ruscha gapiradi. Magazinda,

kassada, hatto, "trenerim" ham umuman o'zbekcha gapirmaydi. Men "tolko" o'zbek tili darsida o'zbekcha gaplashaman. Menga o'zbek tili unchalik kerak emas.

O'quvchining bu gapi meni qattiq ta'sirlantirdi. "O'zbek tilini o'rganish shartmi?". Uning bunday o'ylash borishi bejiz emas. Agar o'zbeklar Rossiyada yashasa rus tilini o'rganishga majbur bo'ladi.

Chunki o'zbek tili bilan Rossiyada hech narsaga erishib bo'lmaydi. Ammo O'zbekistonda o'zbek tilini bilmay turib yashashning iloji bor. Har qanday hujjatning avval rus tilida, keyin o'zbek tilidagi bayoni chiqadi. Rus va o'zbeklar aralash ishlaydigan tashkilotlarda, asosan, rus tilida gaplashiladi. Majlis va yig'ilishlar ham rus tilida olib boriladi. Sobiq ittifoqning

bir necha yillar davomida olib borgan "dohiyona siyosati" tufayli tilimizdagi ruscha atamalar ona tilimizning rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatdi.

Turkiyaga borgan odam bir oyda turk tilini o'rganib oladi. Chunki turklar boshqa tilda umuman gaplashmaydi. Ular o'z ona tilini juda qattiq hurmat qiladilar. Bu bilan boshqa tillarni o'rganmaslik kerak, degan fikrdan yiroqman. Ko'p til bilish, boshqa millat kishisi bilan bemalol gaplasha olish juda yaxshi, albatta. Millatidan qat'i nazar, O'zbekistonda tug'ilib, shu yurti Vatani deb biladigan rusiyzabon insonlar bor. Ular bilan til, millat haqidagi masalalarda tortishish shart emas. Biz birinchi o'rinda o'z tilimizni o'zimiz hurmat qilishimiz va, albatta, o'zga tilda gaplashuvchi-

lar uchun imkoniyat yaratishimiz kerak.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Oliy Majlisiga Murojaatnomasida "Ona tili bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimini yaratish lozim. Yoshlar istalgan vaqtda imtihon topshirib, tegishli guvohnoma olsa, o'qishga kirayotgan paytda ona tili bo'yicha qayta sinovdan o'tishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi" deb aytdilar. Bu esa yoshlarimiz uchun tilimizni chuqurroq o'rganishga bo'lgan yana bir imkoniyat va oliy o'quv yurtlariga kirish uchun mufaffaqiyat kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Bundan ona tili va adabiyot hamda o'zbek tili fani o'qituvchilarning ko'ngli tog'dek ko'tarildi. Tilni o'rganishda nafaqat grammatika, balki hayotda u tildan foydalanish uchun ko'nikmalar hosil qilish ham juda muhim.

**Shahnoza SHARIPOVA,**  
Yashnobod tumanidagi  
152-maktab o'qituvchisi

— Unchalik deb o'ylamayman, ustoz. Chunki biz uyda faqat ruscha gaplashamiz. Mening davolovchi "vrachim" ham o'zbek, "nu" ruscha gapiradi. Magazinda, kassada, hatto, "trenerim" ham umuman o'zbekcha gapirmaydi. Men "tolko" o'zbek tili darsida o'zbekcha gaplashaman. Menga o'zbek tili unchalik kerak emas.